

*Rayxon Jumanazarova Jaloliddinova*  
*Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi*

## REMINISSENSIYA HODISASINING HALIMA AHMEDOVA IJODIDA O'RGANILISHI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek she'riyatida reminissensiya hodisasi tahlilga tortilgan. Jumladan, shoira Halima Ahmedova ijodida ko'ngil kechinmalari reminissensiya hodisasi orqali ifodalangani o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** reminissensiya, ijod, xotirlash, jigarrang kitob, to'liqlilik, badiiylik, tojdor ilon.

**Аннотация:** В данной статье описывается феномен реминисценции и значение этого явления в творчестве поэтессы Халимы Ахмедовой.

**Ключевые слова:** реминисценция, творчество, память, коричневая книга, законченность, артистизм, коронованный змей.

**Annotation:** This article describes the phenomenon of reminiscence and the significance of this phenomenon in the work of poetess Halima Akhmedova.

**Keywords:** reminiscence, creation, commemoration, brown book, completeness, artistry, crowned serpent.

O'zbek adabiyoti dengiziga bugun yangi-yangi to'lqinlar kirib kelmoqda. Ko'ngilga yangi havo olib kirayotgan ijodkorlarning asarlari barcha foydalanuvchilar tomonidan iliq qabul qilinmoqda. Adabiyot olamiga kirgan inson borki, bu dunyodan yaxshilik izlab yashaydi. Shuning uchun ijodkor ahlini ezgulik elchilari deb ataymiz. Insonning hayoti quvonch-u tashvishlardan iborat. Buni qalbdan his qilgan iste'dodli shoira Halima Ahmedova o'z she'rlarida insonning ko'ngil kechinmalariga murojaat etadi. Shoiraning she'rlari o'zining ma'nodorligi, ohangdorligi, ravonligi va badiiy jihatidan mukammalligi bilan ajralib turadi. Shoira nafaqat o'zining, balki ko'pchilik she'riyat muxlislarining ko'ngil mulkiga aylangan ijod namunalari uchun keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etilmoqda.

**Halima Ahmedova** — shoira, O'zbekiston yozuvchilar uyusmasi a'zosi, ko'plab she'riy kitoblar muallifi. Shoira ijodini kuzatar ekanmiz, shoiraning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlarga boy iste'dod egasi ekanligiga amin bo'lamiz. Shoira Halima Ahmedovaning she'rlari orqali o'z ijodida tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etganligini, butun bilimi, tajribasi hamda iste'dodini namoyon qila oladi. Shoira Halima Ahmedova ijodida ham har bir yozilgan she'rlarida reminissensiya hodisasini kuzatishimiz mumkin.

**Reminissensiya** so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, eslash, xotirlash ma'nosida qo'llaniladi. Reminissensiya hodisasi — eses xotirlash ya'ni, inson ilgari hayotda uchratib o'rgangan narsa va hodisalarni, fikrlar, so'zlar, voqealarni tasmollab eslashi. Bunda eslashning to'liqligi, aniqligi xotiraning individual xususiyatlariga, materialni esda olib qolingani yoki yodlangani paytdan keyin o'tgan vaqtga, materialning mazmuniga, insonning psixik holati va yoshiga, shuningdek, boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Shoira shunday yozadi:

— Bu ilon bezarar. Uzoq yillardan buyon kelib turadi, deb tushuntirgan bo'ldi, bobom.

Shoira bobosining har bir aytgan gaplarini xuddi kechagidek eslaydi.

Xazina bor joyda tojdor ilon bo'ladi, deyishadi. Balki bobomning katta xazinasi bordir, deya o'yladim ichimda. Va undan jigarrang kitobni berishini yolvorib so'radim. Bobom nihoyat eridi. Sandiqni ochayotganda juda chiroyli kuy taralayotgandek bo'ldi. O'sha kuy hali-hanuz qulog'imdan ketmaydi. Sandiq ochilgach, ichidagi rang-barang kitoblarni ko'rib mening ham og'zim ochildi. Bobom u yerda juda ko'p Qur'on kitoblari bilan birga Navoiyning devonlarini saqlar ekan. O'shalar ichidan jigarrang kitobni menga olib berdi. Kitobni ko'ksimga bosdim. Yuragim gupurlab ketdi. Bu gupurlashdan Laylining mayin ovoziyu Majnun oyog'idagi zanjirlarning shiqirlashi eshitilardi. Agar shoir bo'lsam, meni shu kitob shoir qildi. Agar shoir bo'lmasam, ishqning ko'zidagi iztirobni, munavvar qayg'uni ko'rsatib, meni odam qildi shu kitob...Xotiralarning naqshinkor darichasini sekin yopaman. Va

derazamga tinimsiz gul chizayotgan fevralning ko‘zlariga minnatdor boqaman. Yuragimda ildiz otgan ishqning, mukarram sog‘inchning titroqlariga qo‘shilib, Navoiyni - sog‘inaman, unga talpinaman:

... Hirot bog‘larida kezgan xayolning  
Qalbidan taralgay o‘zbekona his...  
To hanuz o‘zini izlab yurganlar —  
Siz ham Navoiyni sog‘inganmisiz?

Shoira ushbu satrlar orqali Hazrat Navoiyni eslaydi, unga ehtirom keltiradi, o‘zbek xalqining Hazrat Navoiydek buyuk siymari borligini ta’kidlaydi. Shoira yana shunday aytadilarki, “Bobom nihoyatda savodli odam edi har kuni meni yonlariga chaqirib, Bedil, Mashrab, Yassaviy, Navoiy va mavlono Rumiyni o‘qib berardilar. Menga o‘shanda g‘azallarning mazmunidan ko‘ra ohangi ko‘proq yoqardi. Chunki, mazmuniga tishim o‘tmasdi.”

**Siz ham Navoiyni sog‘inganmisiz?**

Shoironing ushbu satrlar orqali Navoiy ijodiga yoshlik chog‘laridan qiziqib, she’riyatga oshno qalb ekanligidan darak beradi.

Navoiy kirmagan uylar qorong‘u,  
Navoiy kirmagan ko‘ngillar zindon.  
O‘ziga mahliyo ey nazmbozlar —  
Ko‘ring, Navoiydan mast bo‘ldi jahon.

Ushbu satrlar orqali shoira har bir o‘zbek oilasida Navoiyni ijodiga yuksak e’tibor bilan qaralgani, hech bir xonadon, uy yo‘qki, Navoiyni ijodidan bebahra qolgan holatlarni tasvirlaydi. Navoiy ijodini o‘rganmagan uylar qorong‘i va uning mohiyatini anglamagan ko‘ngillar esa, zindonga qiyoslanadi.

... Fevral, yuragimga qo‘ygin boshingni,  
Shunda nur oqadi jismimda sim-sim.  
Nogoh qush tilida sayraydi jonim:  
Navoiy, Navoiy, sizni sog‘indim!

“Yanvar yelkasiga osmon po‘stinini tashlab, sekin oyoqlaydi. Ba’zi-ba’zida oftobning ehtirosli shivirlari yurakning qulog‘iga chalinadi. Va nihoyat fevral kirib keladi. Bu oying kirib kelishi bilan izg‘irinli kunlar yana ozodlikka chiqadi. Fevral ayozining hikmatini qarang: chidaganga chiqargan bu hayotni, deydi. Yana ko‘ngil derazalariga erinmay gul chizadi. Mavhum shakllar suratini mashhur musavvirlardan ham zo‘r chizadi”. Shoira qish faslini ushbu satrlar orqali shunchalik ta’sirli va ma’noli qilib ifodalaydiki, beixtiyor kitobxon qish faslining ziynatini tasavvurlar orqali his eta oladi. Shoironing yana bir ajib tarovat bilan yozgan jumllarini tahlilga tortamiz.

“Fevral hikmatu sirlarga to‘la oy. Bu oy qish bilan bahorning o‘rtasidagi ko‘prikka o‘xshaydi. Undagi shiddat qor ostidagi boychechak, binafsha, yalpizlarning qo‘shig‘iga kuy bastalaydi. Hayotning qornidagi yashil fasliga iztirobdan tug‘iladigan ishqning, umidning sabog‘ini o‘taydi. Fevral oyida tug‘ilganlarga havasim keladi. Ammo bu oyda tug‘ilganlarning bari ham Navoiy yoxud Bobur bo‘lolmaydi”.

Shoironing “BOLALAR UYIDA” deb nomlangan she’rida ham quyidagi parchalarni uchratishimiz mumkin.

Bu dargoh – sog‘inchning ulkan daraxti,  
Toshbag‘ir yo‘llarga qarab o‘sar tik,  
Ota-onasini izlab ketganday,  
Bolalar uyidan qochgan BOLALIK...

Bolalar uyida yashayotgan bolalarning sog‘inchini ulkan daraxtga qiyoslaydi, bolalar uyiga olib boradigan yo‘lga esa, “toshbag‘ir” deb nom berdi. Chunki, bu yo‘l shunchalik toshbag‘irki, hech kimni o‘ziga chorlamaydi, hech kim yurmaydi. Bolalar uyidan bolalikni qochib ketishi esa, u yerda yashayotganlar bola lekin, ularda bolalikning hech qanday belgilarini ko‘ra olmaysiz.

Bu dargoh armonning xilxonasidir,

Jajji ko‘zchalarda sog‘inch zardobi:

“Onamni, dadamni ko‘rmadingizmi?”

Yurakda yiringlar bu so‘z javobi.

Bolalarning orzulari, qordek beg‘ubor, pok tilaklari esa, xilma-xil armonga qiyoslanadi. Bolalarning ko‘zidagi sog‘inch achchiq zardob misoli. “Onamni, dadamni ko‘rmadingizmi?” degan so‘z yiringga tenglashtiriladi. Yiring inson tanasiga qanchalik og‘riq beradi. Bu savolga javob berish ham juda qiyin va og‘riqli ekanligi tasvirlanadi.

Shoiraning yana quyidagi hikoyalari juda ham ta’srli ruhda yozilgan va kitobxonni o‘ziga mujassam qila oladi. Shoira shunday eslaydi:

“Hovlidagi tomorqaga onam qarardi. Qo‘lidagi ketmon bilan yer chopardi. U yer chopayotganda kimningdir joniga ozor berishdan qo‘rqqanday ketmonni ohista urardi. So‘ng esa o‘tirgancha begona o‘tlarni yulardi. Men unga qarashardim. Shunday paytlarda bir gapni ko‘p takrorlardi:

— Tuproqdan aylanay, tuproqning ham joni bor, qizim...

Qiziqishim zo‘r kelardi:

— Tuproqning tili ham bormi, ona?

Savollarimdan u yayrab ketardi. Va darsini qiziqarli o‘tkazishga uringan ustozday erinmay tushuntirardi:

— Tili bor, qizim. Dunyodagi bor gulu giyoh, daraxtlar, hatto fasllar ham uning tilida gapiradi. Ishonmasang, tinglab ko‘r...”

Halima Ahmedova ijodini kuzatgan kitobxon uni beixtiyor yanada qayta-qayta o‘qigisi keladi. Har qayta o‘qiganda esa har xil ma‘no, mazmun oladi. So‘zlar Halima Ahmedovaning she‘rlarida va hikoyalarida chinakamiga jilolanib, uning ko‘ngil sirlarini oshkor etadi. Har qayta o‘qiganimizda yangicha ma‘no tovlanishlaridan qalbimizdagi sohir tuyg‘ular titroqqa tushadi.

Shoira bolaligini eslab shunday yozadi, “Shu kunlarda bolalikka har kuni xayolan o‘n marta qaytaman desam, ishonavering. Bu shaffof davrning o‘z ehsonlari bor. Men bolaligimdan shuning uchun ham minnatdormanki, u menga eng chiroyli xayollarni berdi, tabiatdan sir terishni o‘rgatdi”.

Tong, otarda uyg‘oting meni,

Chalay suvlar qo‘ng‘irog‘ini.

Kapalaklar uyidan topay

Bolaligim ko‘zmunchog‘ini.

Shoira bolalikni shunday tasvirlaydiki, ariqlarda oqqan suvlarning ovozi jarangli qo‘ng‘iroq misoli. Kapalaklarni ortidan quvgan bolalik ko‘zmunchog‘i singari tasvirlanadi.

Tong, otarda uyg‘oting meni,

Qizg‘aldoqni qo‘yay erkalab.

Har giyohga, har bitta gulga

Go‘zal tushdek boqayin yayrab.

Tongda qizg‘aldoqlarni erkalab, suyib yashil tabiat qo‘ynida borliqni his etish holatlari shoira ijodida takrorlanmas ruhda ekanligini qalban his qilamiz. Shoiraning yashil rang ortida uning zimmasiga yuklanayotgan ma‘nolar o‘zbek xalqining ma‘naviy – axloqiy qadriyatlarini ifodalab beradi. Ya‘ni yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida insonlarga kuch baxsh etadi. Va shu bilan birgalikda yashil- hayot, tiriklik, yashnoqlik bag‘ishlaydi insonga.

Esingdami, qishloq , bolalik....

Paxsa devorni

Ot qilib mingancha kuylardi har kun. (56 bet).

Qishloq hayotida bolalarning cho‘pdan ot qilib yugurishganiyu, paxsa devorni ot qilib o‘ynashgan holatlar ham shoira she‘rlarida o‘z aksini topgan.

Asli qishloqdanman, manglayini maysa o‘pgan qishloqdan.

Bunda qishloqning yam-yashil dov daraxtlari, yashil bog‘lari, maysalari ifodalanadi. Insonni manglayigacha , ya‘ni peshonasigacha o‘sgan maysalar tinchlikni ifodalaydi. U shu qadar o‘sdiki, unga hech kim ozor bermadi. Buning zamirida esa tinchlik ifodalanadi.

Yurak qiblasida turarkan Vatan  
Qayta tug' ilmoqlik rost bo'lsa agar,..  
Qayta tug' ilardim O'zbekistonda.

Va shu o'rinda haqlik, shukronalik hissi, tinchlikni, yashillikni, milliy g'urur iftixorni, qadriyatlarini, oqib borayotgan vaqtni boy berish borasida ham alohida tasvirlar mavjud.

Bugungi kundagi kitobxonlarga yuragi gupirib turgan she'rlar kerak. Toki bunday she'rlar har bir kitonxonni Vatanni, ona tuproqni, hayotni, haqiqatni sevishtga o'rgatadi. Faqat yurakdan chiqqan she'rgina yurakka yetib boradi. Halima Ahmedova she'rlarida va hikoyalarida ana shunday holatni kuzatishimiz mumkin. Shoira ijodining ko'pqirraliligi, qablarga kira olishi bilan o'zbek adabiyotida alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Halima Ahmedova iste'dodli o'z uslubini yarata olgan shoirlarimizdan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova H. Umid soyasi.-T.: Nihol, 2008
2. Ahmedova H. Erk darichasi.-T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996
3. Ahmedova H. Yashil.-T.: O'zbekiston, 2016
4. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari.- Samarqand: 1994
5. Salohiy D. Alisher Navoiy poetik uslubining tadrijiy takomili (g'azallar matnlarining qiyosiy tahlili asosida). – fil.fanl.dokt... diss.avtoreferati. – Toshkent, 2001.
6. Ковалёв А. Психология литературного творчества. – Л.: Изд-во Ленинградского государственного университета, 1960. 136 с.; Цейтлин А.Г. Труд писателя. Вопросы психологии творчества, культуры и техники писательского труда. – М.: Советский писатель, 1962. – 591 с.